



KORRUPSIYANING MOHIYATI VA UNING OQIBATLARI

Raupova Parvina

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining
Filologiya va tillarni o`qitish (ingliz tili)
ta'lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Turabova Sevara Kattaqulovna,

falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
«Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrası dotsenti
[ORCID - 0000-0001-9028-6943](https://orcid.org/0000-0001-9028-6943)
[Tel.: +998996762269](tel:+998996762269)
E-mail: turobova.sevara@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaning mohiyati, kelib chiqish sabablari va uning jamiyatdagi salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, qonuniylik va adolat tamoyillariga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali chora-tadbirlar va mexanizmlarni joriy etishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, jamiyat, salbiy oqibatlar, iqtisodiy rivojlanish, qonuniylik, korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlar, ijtimoiy adolat.



KIRISH

Korrupsiya bugungi kunda jamiyat va davlat rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lib, uning ildizlari turli sohalarda namoyon bo'ladi. U nafaqat iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillarini ham zaiflashtiradi. Korrupsiyaning mohiyatini anglash va uning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, shuningdek, unga qarshi samarali choralar ko'rish nafaqat davlat organlari, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada korrupsiyaning mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini va uni bartaraf etish bo'yicha samarali mexanizmlar haqida fikr yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash masalasiga bag'ishlangan ilmiy va amaliy tadqiqotlar oxirgi yillarda ancha kengaydi. Korrupsiyaning mohiyati, uning jamiyat va davlat boshqaruviga salbiy ta'siri, shuningdek, unga qarshi kurash choralari yuzasidan turli ilmiy ishlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. O'zbekistonda korrupsiyani tahlil qilishda quyidagi yo'nalishlardagi tadqiqotlar muhim o'rin tutadi: 1) Huquqiy tadqiqotlar: yurist olimlar korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini ishlab chiqishda katta hissa qo'shmoqda. Xususan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (2017) korrupsiyaga qarshi kurashni tizimli ravishda amalga oshirish uchun huquqiy zamin yaratdi. Shuningdek, qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlash sohasidagi tadqiqotlar korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. 2) Iqtisodiy tahlillar: iqtisodchi olimlar korrupsiyaning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini chuqur tahlil qilib, uning investitsiya muhiti, davlat byudjeti samaradorligi va xususiy sektor faoliyatiga salbiy ta'sirini ko'rsatib bermoqda. Xususan, davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta'minlash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish kabi chora-tadbirlarning ahamiyati ta'kidlanadi. 3) Ijtimoiy tahlillar: korrupsiyaning ijtimoiy oqibatlarini, uning



aholining turmush darajasiga, davlat organlariga ishonchga va ijtimoiy adolat tamoyillariga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar ham keng yo'lga qo'yilgan. Jamoatchilik fikrini o'rganish va uni korrupsiyaga qarshi kurash jarayoniga jalb etish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar mavjud.4)Xalqaro tajriba o'rganilishi: korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro tajribani o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar ham ancha keng qamrovlidir. Jahon banki, Transparensi Interneshnl kabi tashkilotlarning tadqiqotlari va ularning tavsiyalari O'zbekistonning milliy strategik dasturlarini ishlab chiqishda inobatga olinmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda ba'zi kamchiliklar ham mavjud. Masalan, ko'p hollarda nazariy tahlillardan amaliy tavsiyalar ko'rinishidagi mexanizmlarga o'tishda yetarlicha dolzarb yondashuvlar kamayib ketadi. Shu boisdan, kelgusida amaliy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish va sohalar kesimida maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishida adabiyotlar bazasi muntazam boyib borsa-da, bu masalaga yondashuvni yanada kengaytirish va chuqurlashtirishga ehtiyoj seziladi. Ilmiy-tadqiqot ishlari, huquqiy islohotlar va amaliy dasturlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish mumkin.

MUHOKAMA

Korrupsiyaning mohiyatini tushunish uchun, avvalo, uning kelib chiqish manbalari va jamiyatda qanday namoyon bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Korrupsiya odatda shaxsiy manfaatlarni jamoat manfaatlaridan ustun qo'yish natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonda davlat idoralari, xususiy sektor va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlardagi suiiste'molchiliklar muhim o'rin tutadi. Korrupsiya jamiyatda salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, u iqtisodiy rivojlanishga jiddiy zarba beradi, chunki korrupsiya tufayli davlat mablag'lari samarali sarflanmaydi, sarmoyadorlarning ishonchini yo'qotadi va iqtisodiy notenglikni kuchaytiradi. Ikkinchidan, ijtimoiy adolat tamoyillari buziladi, bu



esa aholining davlat idoralariga ishonchini pasaytiradi. Uchinchidan, korrupsiya qonun ustuvorligi va davlat boshqaruvining samaradorligiga putur yetkazadi.

Muammoning yana bir muhim jihati korrupsiyaga qarshi kurashishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar joriy etilganda, ularning samaradorligini ta'minlash uchun tizimli yondashuv zarur. Bu yo'lda xalqaro tajribani o'rganish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatning barcha qatlamlarining faol ishtirokini ta'minlash lozim. Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash madaniyatini shakllantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va OAV orqali ochiqlikni ta'minlash bu borada samarali vositalardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat huquqiy choralar ko'rishni, balki jamiyatning umumiy ongini o'zgartirishni ham talab qiladi. Bu jarayonda barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son. (Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullangan).
2. 2021 — 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.03.2021 yildagi PF-6181-son
3. Турабова, С. К. (2023). Влияние современных технологий и социальных сетей на формирование молодёжи. International scientific journal of Biruni, 2(3), 132-137.
4. <https://www.transparency.org/ru/press/cpi2023-corruption-perceptions-index-weakening-justice-systems-leave-corruption-unchecked>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_hamkorlik_va_taraqqiyot_tashkiloti